

**XALQARO INSON HUQUQLARI STANDARTLARI VA MA'MURIY  
SUDGA MUROJAAT ETISH MUDDATLARI**

**Raxmonov Zafarjon Zayniddinovich**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
Pedagoglar markazi mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [z.raxmanov95@gmail.com](mailto:z.raxmanov95@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda ma'muriy sudga murojaat qilish muddatlarining huquqiy tabiati va ularning inson huquqlarini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilikda belgilangan sud himoyasi kafolatlari hamda ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi murojaat muddatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, murojaat qilish muddatlarining boshlanish vaqti, ularni hisoblashda yuzaga kelayotgan amaliy muammolar va protsessual muddatlarni tiklash institutining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda milliy qonunchilik normalari xalqaro inson huquqlari standartlari bilan taqqoslanib tahlil qilinadi. Shu asosda ayrim qisqa muddatlarni takomillashtirish, sudga kirish huquqini ta'minlash hamda huquqiy yordam mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.*

***Kalit so'zlar.** Ma'muriy sud, sudga murojaat qilish muddati, inson huquqlari, sud himoyasi, xalqaro standartlar, protsessual muddatlar, muddatni tiklash, huquqiy yordam, sudga kirish huquqi, ma'muriy adolat.*

So'nggi yillarda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda fuqaro va



tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan.

Xususan, Konstitutsiyamizning 55-moddasiga ko'ra, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi<sup>1</sup>. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Mazkur kafolatlar jismoniy va yuridik shaxslarni ma'muriy sudga murojaat qilish, murojaat qilishda muddatlar va boshqa tartiblarda inson huquqlarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 4-moddasida sudga murojaat qilish huquqi belgilangan bo'lib, unga ko'ra har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ma'muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqli<sup>2</sup>.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksida murojaat qilishga oid bir nechta muddatlarni ko'rish mumkin. Xususan, ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son.

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran olti oy ichida, davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida va har bir instansiyani bo'yicha belgilangan muddatlarda murojaat qilish mumkin.

Shuningdek, ma'muriy sudlarda apellyatsiya shikoyati 1 oy ichida beriladi, kassatsiya shikoyati sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan keyin 6 oy ichida beriladi. Protsessual muddatlarni tiklash (uzrli sabablar bo'lsa) instituti mavjud, bu "samarali sud himoyasi"ni ta'minlashda muhim kompensatsion mexanizm hisoblanadi.

Biroq, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda manfaatdor shaxslar ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat (harakatsiz)dan norozi bo'lsa, 30 kalendar kun ichida sud tartibida shikoyat qilish mumkinligi belgilangan. Shuningdek saylov huquqlari sohasida maxsus muddatlar amal qiladi, xususan saylov komissiyalari qarorlari ustidan 5 kun ichida sudga, Markaziy saylov komissiyasi qarorlari ustidan 5 kun ichida Oliy sudga shikoyat qilinishi mumkin, shikoyat 3 kun ichida (yoki saylovga 6 kundan kam qolsa darhol ko'rib chiqiladi) ko'rib chiqilishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha fikr bildirishimiz mumkin, ma'muriy sudga murojaat muddatlarni quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin: umumiy muddat 6 oy, maxsus qisqa muddatlar 10 kun va 5 kun, ma'muriy tartib-

taomillardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha 30 kalendar kun, instansiyaviy shikoyatlar apellyatsiya 1 oy, kassatsiya 6 oy, taftish 1-yil.

Murojaat qilishdagi muddat masalasidagi muhim jihat qachondan o'ta boshlashi, ya'ni muddat qachondan hisoblanishidir. Amaldagi qonunchilikda muddatni boshlanishini shaxsning huquqlari yoki qonuniy manfaatlarini buzilganligi bo'yicha qaror "ma'lum bo'lgan kun" yoki "tegishli tarzda xabardor qilingan kun" sifatida belgilangan. Amaliyotda qarorni rasmiy yetkazishdagi kechikish, elektron xabarnoma ishlamasligi, qaror nusxasi kech yuborilishi kabi holatlar ma'muriy sudlarda muddatni hisoblashni murakkablashtirishmoqda. Bunday vaziyatda sudlar muddatni tiklashda inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashgan holda hal qilgan ma'qul, aks holda formalizm o'xshash bo'lib qoladi.

Misol uchun davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida berilishi kerak, biroq ushbu muddatning inson huquqlari bilan muvofiqligini ham aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni huquqiy axborotning ochiqligi, ishonchli xabardor qilish, zarur hollarda yuridik yordamdan foydalanish kabi muhim jihatlarni ham unutmaslik lozim.

Xalqaro inson huquqlari standartlariga sudlarga murojaat qilish muddatlarini ham ko'rib chiqadigan bo'lsa, xalqaro standartlarni ma'muriy sud muddatlariga tatbiq etganda quyidagi mezonlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- birinchi mezon, muddatlar bo'yicha huquqiy asosning mavjudligi (qonun bilan belgilanganlik);

- ikkinchi mezon, muddatlar oid normalarning aniq va tushunarli bo'lishi;
- uchinchi mezon, muddatlarda holatga mutanosib bo'lishi lozim (huquq mohiyatini buzmaslik);
- to'rtinchi mezon, murojaat qilishda real imkoniyatlarning mavjudligi (xabardor qilish, huquqiy yordam, to'siqlarni kamaytirish);
- beshinchi mezon, kompensatsion mexanizmlarning mavjudligi (muddatni tiklash, istisnolar).

Milliy tizimda umumiy 6 oylik muddat inson huquqlari nuqtayi nazaridan odatda mutanosib deb baholanishi mumkin bo'lgan daraja (yetarli tayyorgarlik va huquqiy yordam topish imkoniyati bilan) sifatida ko'rinadi. Biroq maxsus qisqa muddatlarni (5 kun, 10 kun) xalqaro standartlarda belgilangan mezonlarga moslashtirishni taqozo qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib qo'yidagicha fikrni bildirishimiz mumkin:

birinchidan, ma'muriy sudga murojaat qilish muddatlari inson huquqlari tizimida majburiy tartibda man qilinadigan cheklov bo'lmasligi kerak, aksincha ular huquqiy aniqlik va adolatli sudlovni tashkil etishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Biroq har qanday muddatlar insonni "sudga kirish" huquqini amalda ta'minlashi, huquq mohiyatini yo'qqa chiqarmasligi va haddan tashqari formalizmga olib kelmasligi shart;

ikkinchidan, milliy qonunchilikda umumiy 6 oylik murojaat muddati, apellyatsiya va kassatsiya bosqichlari, shuningdek muddatni tiklash instituti

mavjudligi insonning konstitutsiyaviy huquqi bo'lgan “sud himoyasi” kafolatlarini protsessual jihatdan ta'minlaydigan muhim norma ekanini ko'rsatadi;

o'chinchidan, “uzrli sabab” mezonini talqin qilishda qarorning o'z vaqtida berilmagani, to'g'ri xabardor qilinmagani, asosiy hujjatlarni olish imkoni bo'lmagani, tabiiy ofatlar yoki sog'liq holatlari kabi omillar bo'yicha aniq yo'riqnoma (Oliy sud tomonidan tushuntirish) ishlab chiqish lozim;

to'rtinchidan, qisqa muddatli toifalar (5 kun, 10 kun) uchun “tezkor huquqiy yordam” mexanizmini institutsionallashtirish (masalan, davlat hisobidan huquqiy yordam, “yurist-konsultant” platformalari) chunki xalqaro standartlarda huquqiy yordam kirish muhim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

2. O'zbekiston Respublikasi “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son.

3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son.

4. Baxrax D.N., Xazanov S.D. Формы и методы деятельности государственной администрации. Учебное пособие. – Екатеринбург, 1999. – С.

7. (Bakhrakh D.N., Khazanov S.D. Forms and methods of public administration activity. Tutorial. – Yekterenburg, 1999. – P. 7.).

5. Ne'matov J.N. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy protseduralar institutini takomillashtirish. (qiyosiy-huquqiy tahlil), (monografiya) – Toshkent, 2018. 192-bet.